

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

Qo‘qon davlat universiteti

rektori D.Sh.Xodjayeva

29-avgust 2025 -yil

**RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARNI TASHKIL QILISH
TEXNOLOGIYASI FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo’nalishi:	60110200 – Maktabgacha ta’lim

Fan /modul kodi RMTE1204		O'quv yili 2025-2026	Semestr 2	ESTS - Kreditlar 4	
Fan /modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Rivojlantiruvchi markazlarni tashkil qilish texnologiyasi	60	60	120	
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni kelgusida ish faoliyatlarini to'g'ri tashkil etish va Rivojlanish markazlarida ta'limiy faoliyatni to'g'ri rejalashtirish, bilimlarni faoliyatga tadbiiq etish, mutaxassislik madaniyatni tarkib toptirish.</p> <p>Fanning asosiy vazifalari:</p> <p>-maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyatni rejalashtirish va tashkil qilish metodikasini, mashg'ulotlarni rejalashtirish, mashg'ulot ishlanmalarini tuzish va taxlil qilish, metodik usullari va ta'limiy o'yinlar tanlash, ular bilan ishlash mazmuni va metodlarini o'rgatish, kunning ikkinchi yarmini to'g'ri tashkil etish kabi va zifalarni bajaradi.</p> <p>Fanning asosiy manbalari sifatida University of Cambridge universitetining universitetining "Education Policy and International Development", "Personal, Social and Emotional Development" fanlari, shuningdek Monash University universitetining "Diversity in child development" dasturi mavzularidan faoydalanilgan.</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism(ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.I.Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1–MODUL. Maktabgacha ta'lim tashkilotida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining qo'llanilishi.</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim va tarbiya jarayonining maqsad va vazifalari tamoyillari</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim va tarbiya jarayonining maqsadi bolaning tayanch kompetensiyalari va rivojlanish sohalarining kompetensiyalarini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishdir.</p>				

Tamoyillar esa maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan kutilayotgan natijalarni, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari tomonidan davlat o'quv dasturini amalga oshirishda ta'minlanishi kerak bo'lgan rivojlantiruvchi muhitning xususiyatlarini, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish va rivojlantirishdagi yondashuvlarni tavsiflaydi.

2-mavzu Maktabgacha ta'lim tashkilotida ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorligi maktabgacha ta'lim sifatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik bolalarning ta'lim olishi, farovonligi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. MTT ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan o'zaro munosabatlarning turli shakllarini amalga oshirishi mumkinligi talabalarga yetkaziladi.

3-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanish markazlarini tashkil etishda pedagogning ro'li

Davlat o'quv dasturini amalga oshiruvchi pedagog bolaning shaxsiga hurmat ko'rsatadi va ta'lim va tarbiya jarayonini dastur tamoyillariga muvofiq tashkil qiladi. Pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta'lim va tarbiya berishda o'z bilimi, ko'nikma va resurslaridan foydalanadi. Pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtiradi, bolaning har tomonlama rivojlanishiga va uning salohiyatini ochishga hissa qo'shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratadi.

2–MODUL. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv

4-mavzu: Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari

Rivojlanish sohalari bo'yicha kompetensiyalarni o'zaro bog'liq holda takomillashtirish bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, uning maktab ta'limi bo'lgan keyingi bosqichiga muammosiz o'tishi va unga tayyor bo'lishi, boshlang'ich ta'limda kompetensiyalarni shakllantirishi uchun zarurdir

Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- ***jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi***
- ***ijtimoiy-hissiy rivojlanish***
- ***nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari***
- ***bilish jarayonining rivojlanishi***
- ***ijodiy rivojlanish***

5-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv bolalarning bilish bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish, axloqiy

me'yorlar va qadriyatlarni rivojlantirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, shaxsiy ("Men" konsepsiyasi) ni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

6-mavzu Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida o'yinning roli va maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim va tarbiya jarayonida uning ahamiyati

Davlat o'quv dasturida bolaning o'yin o'ynash huquqi tan olinadi, o'yinning bola uchun ahamiyati, uning pedagogik imkoniyatlari ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda inobatga olinadi. O'yin maktabgacha yoshda yetakchi faoliyatdir. O'yin orqali ta'lim olish bolalarni ta'lim olishi va rivojlanishining yondashuvla-ridan biridir. O'yin – bu bolani o'zini va atrofidagi dunyoni o'rganishga undash-ning tabiiy usuli. O'yin bolaning shaxsiyati, uning bilish, ijtimoiy-hissiy, ijodiy va jismoniy jihatlarini rivojlantiradi. O'yinda bolalarning tengdoshlari va pedagogi bilan o'zaro munosabati nutq va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, uning motorikasi takomillashib boradi.

3–MODUL. Ta'lim va tarbiya jarayoni

7- mavzu: Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtirish

Rejalashtirish davlat o'quv dasturini amalga oshirish va har bir bolada tayanch kompetensiyalarni shakllantirishni ta'minlashning muhim qismidir. Ta'lim va tarbiya jarayoni o'quv rejasiga muvofiq amalga oshiriladi.

8- mavzu: Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish

Maktabgacha ta'limtashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning yoshi, individual xususiyatlari va ehtiyojlarini, shuningdek, mintaqaning madaniy va tarixiy xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

9- mavzu: Davlat o'quv dasturi bo'yicha kutilayotgan ta'limiy natijalar.

Davlat o'quv dasturini o'zlashtirishdan kutilayotgan ta'limiy natija maktabgacha ta'lim tashkilotini bitiruvchi bolaning tayanch kompetensiyalari (kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy, bilish)ning shakllanganligi hisoblanadi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida pedagog kuzatishlar yordamida har bir bolaning rivojlanishini davlat talablarida qayd qilingan rivojlanish sohalari va kichik sohalari bo'yicha barcha yosh guruhida bolaning mumkin bo'lgan yutuqlarining ijtimoiy-me'yoriy yosh xususiyatlarini kuzatib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining individual xususiyatlari maktabgacha yoshdagi bolaning davlat talablariga to'liq mos keladigan ta'lim

yutuqlariga qo'yiladigan talablarni cheklaydi va ta'lim dasturini o'zlashtirishda kutilayotgan natijalar shaklida aniqlash zarurligini belgilaydi

4–MODUL.Rivojlanish markazlarida faoliyatni tashkil etish

10- mavzu. Rivojlanish markazlari va ularning maqsad va vazifalari

•
“Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazida bola qurish-yasashni, matematik bilimlarni, muloqotga kirishishni o'rganadi. Shu bilan birga mayda motorika rivojlanadi, bola doimiy xarakterda bo'ladi, bilmaganlarini bir-biridan o'rganadi, bir-biriga o'rgatadi.

“Syujetli-rolli o'yinlar va saxnalashtirish” markazi o'z ichiga guruhdagi yillar davomida ishlab kelgan, bolalar tomonidan sevib o'ynalgan "Mexmon-mehmon", "Oila", "Shifoxona", "Maktab", "Atelye", "Sartaroshxona", "Oshxona", "Do'kon" o'yinlarini olgan bo'lib, ushbu markazlar deyarli har kuni ishlaydi. Markaz bolaga nima beradi? Eng avvalo bolaning nutqi rivojlanadi, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilishni o'rganadi, qarindosh-urufchilikni tushunadi. Mexmondo'stlik va mehmonda bo'lish odobi tarbiyalanadi, kattalar mehnati bilan tanishadi, Kasblarga qiziqish uyfonadi. Ma'lum bir kasbni tanlashning ilk bosqichlari boshlanadi. Bolaning tasavvuri kengayadi.

“Til va nutq” rivojlanish markazida bola hayotidagi eng kerakli bo'lgan nutq rivojlanadi. O'qish, yozish malakalari rivojlanadi. Bola harf tanimaydi. Lekin kitobni olib varaqlash orqali o'zini o'qiyotgandek xis qiladi va bir narsalarni ganiradi. Masalan tanish ertaklarni, yodlagan she'rlarini, do'stlari bilan bo'lgan muloqotlarni.

"Ilm ,fan va tabiat" Markazning asosiy maqsadi bolalarni tabiat va tevarak atrofdagi xodisalar bilan tanishtirish, jonli va jonsiz tabiatni farqlash, undagi turli xil mavjudotlarning yashash tarzlari haqidagi ma'lumotlarni olishga o'rgatish.

“San'at” markazning asosiy maqsadi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. Ularni go'zallik bilan oshno qilish, mayda qo'l motorikasini rivojlantirish orqali nutqni rivojlantirish. Bola ranglarni tanlashga, ularni o'z o'rnida ishlatishga o'rganadi. Tevarak atrofdagi narsalarni ranglar orqali anglaydi va tushunadi.

11-mavzu : Guruhlarda rivojlanish markazlarining taxminiy joylashuvi va rivojlantiruvchi muhit uchun materiallar ro'yxati

Bolalarga yo'naltirilgan guruhda puxta o'ylangan va xavfsiz tashkil etilgan rivojlanish muhiti eng muhim rol o'ynaydi, bu pedagoglarga davlat o'quv dasturining maqsad va vazifalarini amalga oshirish va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash imkonini beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanish markazlarida ishlashda tarbiyachi, yordamchi tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi o'ta dolzarbligi, tashkil etilgan rivojlanish markazlarida tarbiyachi yordamchi tarbiyachi ota-

onalar hamkorligida maktabgacha yoshdagi bola faol bilimga asoslangan ijodiy faoliyatga jalb qilinishi, uning qiziqishi, tasavvuri, aqliy va badiiy qobiliyatlari, muloqot malakasi rivojlanishi, eng muhimi shaxsning uyg'un rivojlanishi to'g'risida ma'lumot beriladi.

5–MODUL. Rivojlanish markazlarida ta'limiy faoliyatlarni tashkil etish (barcha yosh guruhlarida)

12- mavzu: “Mavzuli rejalashtirish qo'llanmasi va unga yondoshuv ”

Maktabgacha ta'lim muassasalarining barcha guruhlar uchun mo'ljallangan ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatni mavzuli rejalashtirish qo'llanmasi tarbiyachilarga yordam sifatida ishlab chiqilgan bo'lib maktabgacha ta'lim tizimida pedagog tomonidan ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirishda ta'limni rivojlantirish vazifasi ilgari qo'yiladi va bunda bolaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkillashtirish zamonaviy maktabgacha ta'lim-tarbiyaning konsensiyasi hisoblanadi.

13- mavzu: Kichik, o'rta yosh guruhlaridagi rivojlanish markazlarida ta'limiy faoliyatlarni tashkil etish

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kichik va o'rta guruhlar uchun mo'ljallangan ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatlarni mavzuli rejalashtirish tarbiyachilarga yordam sifatida ishlab chiqilgan. Maktabgacha ta'lim tizimida pedagog tomonidan ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirishda ta'limni rivojlantirish vazifasi ilgari qo'yiladi va bunda bolaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkillashtirish zamonaviy maktabgacha ta'lim-tarbiyaning konsensiyasi hisoblanadi.

14-mavzu: Katta guruhi rivojlanish markazlarida ta'limiy faoliyatlarni tashkil etish

Katta guruh (5-6 yosh) lardagi ta'limiy-tarbiyaviy jarayon “Ilk qadam” Davlat o'quv dasturida tavsiya etilgan mavzular asosida hududiy, milliy, madaniy xususiyatlar va bu jarayonda maktabgacha ta'lim muassasasining imkoniyati va o'ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bir hafta davomidagi mashfulotlarda bitta mavzu o'tiladi va o'zlashtiriladi. Mavzu umumiy guruh va rivojlanish markazlarida olib boriladigan faoliyatlarda o'zaksinitonadi. Ta'lim jarayonining asosiy mavzusini tanlash, albatta, bolalarning barcha faoliyati bu mavzuga bafishlangan bo'lishikerak, degani emas. Mavzuning asosiy muddatlarga taqsimlashdan maqsad– ta'lim jarayonini integrasiyalashtirish va bolalar faoliyatini ta'lim sohalari bo'yicha asossiz taqsimlanishining oldini olishdan iborat.

15-mavzu: Tayyorlov guruhi rivojlanish markazlarida ta'limiy faoliyatlarni tashkil etish

Tayyorlov guruh (6-7yosh) lardagi ta'limiy-tarbiyaviy jarayon "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida tavsiya etilgan mavzular asosida hududiy, milliy, madaniy xususiyatlar va bu jarayonda maktabgacha ta'lim muassasasining imkoniyati va o'ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bir hafta davomidagi mash'ulotlarda bitta mavzu o'tiladi va o'zlashtiriladi. Mavzu umumiy guruh va rivojlanish markazlarida olib boriladigan faoliyatlarda o'z aksini topadi. Ta'lim jarayonining asosiy mavzusini tanlash, albatta, bolalarning barcha faoliyati bu mavzuga barishlangan bo'lishi kerak, degani emas. YA'ni markazlardagi faoliyat mavzularini oy va hafta mavzulari va umumiy maqsaddan chetlashmagan holda o'zgartirish va boyitish tavsiya etiladi.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalarda nazariy o'zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanadi hamda egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalari hosil qilinadi.

Rivojlantiruvchi markazlarni tashkil qilish texnologiyasi fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini mavzuli rejalashtirish" kitobi va undan foydalanish tartibi.
2. "Ilkqadam" davlat o'quv dasturi va uning amaliyotdagi o'rni
3. Maktabgacha ta'limda markazlar faoliyatida olib boriladigan ishlar
4. Ta'limiy faoliyatni tashkil etish va unga rahbarlik
5. Rivojlanish markazlari, ta'limiy faoliyat va ularga qo'yilgan talablar
6. Rivojlanish markazlari va ta'limiy faoliyat
7. Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhit va uning turlari.
8. Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanish markazlarini jihozlashda o'yinlar va Rivojlantiruvchi muhit.
9. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarida ta'limiy faoliyatga rahbarlik qilish.
10. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarida ta'limiy faoliyatni tashkil etishda o'yin faoliyati
11. Rivojlanish markazlarida o'yin va o'yin muhitini tashkil etishning asosiy tamoyillari

- 12 Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridagi ta'limiy faoliyat
- 13 Rivojlanish markazlarida olib boriladigan ish jarayoni.
- 14 MTTda kun tartibini to'g'ri tashkil etishda tarbiyachining roli.
- 15 Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulot (faoliyat) turlari Mashg'ulotning bolalarni maktabga tayyorlashdagi ahamiyati. Mashg'ulot jadvali tuzish talablari. Mashg'ulotda tarbiyachining yetakchilik roli.
16. Rivojlanish markazlari va umumiy guruh bo'lib tashkil etiladigan ta'limiy faoliyatning bog'liqligi.
17. Xorij mamlakatlarida Maktabgacha ta'lim tizimi.
18. Takomillashtirilgan "Ilkqadam" o'quv dasturi
19. "Til va nutq markazi"da ta'limiy faoliyatni tashkilotish va jihozlash
20. "Ilm fan va tabiat"da ta'limiy faoliyatni tashkil etish va jihozlash
21. «Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi»da ta'limiy faoliyatni tashkil etish va jihozlash
22. "Syujetli rolli o'yinlar va sahnalashtirish" markazida ta'limiy faoliyatni tashkil etish va jihozlash
23. "San'at markazi"da ta'limiy faoliyatni tashkil etish va jihozlash
24. Markazlarning bolaning har tomonlama rivojlanishidagi ahamiyat.
25. MTTda ta'lim jarayonini mavzuli rejalashtirish

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Rivojlanish markazlarining faoliyati
2. Rivojlanish markazlari tasnifi
3. Guruh yoshi nisbatida Rivojlantiruvchi muhitning tashkil etilishi
4. Maktabgacha ta'lim va tarbiya standarti va undagi Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishga qo'yiladigan talablar
5. Guruh o'yin maydonchasi
6. Tabiat burchagi
7. O'yin burchaklari
8. Rivojlanish markazlari
9. Umumiy guruh bo'lib ishlash
10. Tezis ko'rinishdagi mashg'ulot ishlanmalari

	<p>11. San'at markazi</p> <p>12. Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi</p> <p>13. Ilm-fan va tabiat markazi</p> <p>14. Qurish-yasash , konstruksiyalash va matematika markazi</p> <p>15. Til va nutq markazi</p> <p>16. Rivojlanish markazlari turlari</p> <p>17. Ta'limiy faoliyat ishlanmalar tuzishda pedagogning kreativligi</p> <p>18. Rivojlanish markazlarida o'yinni tashkil etish</p> <p>19. Rivojlanish markazlarida o'yin va o'yin muhitini tashkil etishning asosiy tamoyillari</p> <p>20. Umumiy guruh bo'lib ishlash</p> <p>21. Ta'limiy faoliyatda pedagogning boshqaruvchanligi.</p> <p>22. Til va nutq markazida bolalar adabiyoti</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publisistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;</p> <ul style="list-style-type: none"> - doklad lartayyorlash; - konspekt yozish; - glossariy tuzish; - keys-topshiriqlarini bajarish; - mavzuli portfoliolar tuzish; - manbaalar bilan ishlash; - multimediali taqdimotlar yaratish; - mashg'ulotning metodik ishlanmalarini tayyorlash; - kartotekalar, ko'rgazmalar hamda mavzu bo'yicha videorolik tayyorlash tavsiya etiladi. <p>Fan bo'yicha kurs ishi. Fan bo'yicha kurs ishi rejalashtirilmagan</p>
3.	<p>VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> – Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi fanining asoslarini, “Ilk qadam” davlat o'quv dasturida belgilangan bolalar faoliyatini to'g'ri tashkil etish mazmunini, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatni ratsional

	<p>yo'lga qo'yish va tashkil etishga, metodik ishlar tizimini qo'llay olish imkoniyatiga ega bo'lish mazmuni; to'g'risida bilimga ega bo'lishi;</p> <ul style="list-style-type: none"> - bolalarni har tomonlama pedagogik, psixologik, estetik, ekologik, huquqiy, mehnat va kasbga doir bilimlarni berish jarayonini tashkil etish, bolalarni ilk va maktabgacha yoshda har tomonlama rivojlantirishning o'ziga xosligini, bolalarni rivojlantirish jarayonida ularni faollikka, tashabbuskorlikka o'rgatish metodlarini amaliy qo'llay olishni bilishi, ko'nikma hosil qilishi; - bolalarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, pedagogik va psixologik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan faoliyatni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borish va bola psixologiyasini, fiziologiyasini rivojlantirishda o'z tajriba va malakalarini to'g'ri qo'llay olishni bilishlari va tegishli malakalariga ega bo'lishlari lozim.
4.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va amaliy topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha topshiriqni test shaklida topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Qodirova F.R, Toshpo'latova Sh.Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik. 2. Esonova M, Maktabgacha pedagogika. T.: 2023 y. Darslik. 3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan), T- 2022 y. 4. O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. T.: 2018. 5. X.Mamadjonova, Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va texnologiyalari, o'quv qo'llanma "Ilm va fan", Toshkent-2023 <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 6.Sh.M. Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. T.:2016y. 29-dekabr

	<p>7. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi</p> <p>8. 23.09.2020 yildagi ЎРҚ-637-сонли “Таълим тўғрисида”ги Қонун Axborot manbaalari</p> <p>9. http://www.tdpu.uz</p> <p>10. http://www.ziyonet.uz/</p> <p>11. https://www.cambridgeinternational.org/programmes-and-qualifications/cambridge-early-years/</p> <p>12. https://www.monash.edu/study/why-choose-monash/courses-explained/</p>
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8.	<p>Fan/modul uchun ma’sullar va dastur mualliflari:</p> <p>G. Nazirova – Qo‘qon DU Maktabgacha ta’lim kafedrası professori, pedagogika fanlari bo‘yicha PhD.</p> <p>N. Sultonova - Qo‘qon DU Maktabgacha ta’lim kafedrası dotsenti</p>
9.	<p>Taqrizchilar: N.Sh.Abdullayeva - Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti rektori, DSc, professor.</p> <p>M.X.Tadjiyeva – Toshkent pedagogika kolleji direktori, p.f.n., dotsent</p>